Yangi hijriy-qamariy yil taqvimi e’lon qilindi

20-avgust hijriy-qamariy taqvim bo’yicha yangi yilning ilk kuni hisoblanadi. Shu munosabat bilan O’zbekiston musulmonlari idorasi hamda O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Astronomiya instituti xodimlari hamkorligida yangi yillik taqvim e’lon qilindi.

O’zbekiston musulmonlari idorasiga qarashli «Shamsuddinxon Boboxonov» nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan 2020–2021 milodiy, 1442 hijriy-qamariy taqvim sotuvga chiqarildi.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo’yicha qo’mita tasdiqlagan maxsus gologramma bilan tamg’alangan haqiqiy yillik taqvim O’zbekiston musulmonlari idorasi hamda O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Astronomiya instituti xodimlari hamkorligida tuzildi.